O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 12 - yanvar 3-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Guliston tumani "Zarbdor" mahalla fuqarolar yig‘iniga “Mahalla guzari” qurish uchun, Hosilobod massivi hududining tuman hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori asosida hamda 2022-yil 20-maydagi 22-sonli Y-1724220/879-15767 unikal lot raqamli yer uchastkasiga bergan ijobiy kelishuv xulosalari bilan kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 5, 20 va 23-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10 va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Guliston tumani "Zarbdor" mahalla fuqarolar yig‘ini raisining 2021-yil 27-dekabrdagi 202-sonli murojaati hamda Guliston tumani hokimligining 2022-yil 19-oktabrdagi 1/03-1866-sonli xati qanoatlantirilsin va viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston tumani "Zarbdor" mahalla fuqarolar yig‘iniga “Mahalla guzari” qurish uchun Hosilobod massivi hududining tuman hokimligi zaxira yer fondidagi 896q-konturdan 70 m x 28 m o‘lchamda 0,1960 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Guliston tumani "Zarbdor" mahalla fuqarolar yig‘ini (J.Axmatov)ga:

Sirdaryo viloyati “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DUKning, Sirdaryo viloyati Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasining, “Hududgaz Sirdaryo” gaz ta’minoti filialining, “Sirdaryo XETK”ning va Sirdaryo viloyati IIB YHXBning xulosalaridagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar hamda talab va tavsiyalarni bajarishda belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazish, qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

qurilishga ajratilgan yer uchastkasini Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Karimov, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b **A.Mahmudaliev**